

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, G.Mirzaaxmedova Bo'lajak tarix o'qituvchilarida analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi xorij olimlarining tadqiqotlarida.....	17
B.Q.Qurbonova Ta'limning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishga doir qarashlar....	22
S.M.Zokirova, M.R.Maxkamov O'zbekistondagi ta'limni tojik tilida olib boradigan maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga davlat tilini o'qitish jarayonida monolog va dialogning o'rni	27
G.I.Yuldasheva, O.M.Mirzaxamdova Sotsiologik tadqiqotlarda dasturiy ta'minot va Ibm Spss dasturidan foydalanish omillari.....	33
Sh.A.Ro'zaliyev Informatika turkum fanlarini o'qitishda geymifikatsiyadan foydalanish bosqichlarini axborotlarni qayta ishlash va uzatish asosida tashkil etishning metodik jihatlari	40
A.R.Abdullayeva Nikoh yoshi - oila barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy psixologik omili	43
N.U.Alijonov Ta'lim sohasidagi rahbarlarning psixologik salomatligini tadqiq etish.....	49
M.Y.Atadjanov Mahalla – milliy identifikatsiyaga tahdidlardan himoya omili.....	54
N.N.Ahmadjonov Ijtimoiy psixologiyada shaxsiy qadriyatlarini aniqlash tizimi.....	60
M.A.Djalalova Maktabgacha yosh davri bolalarining psixologik salomatligining empirik tahlili	65
N.A.Ergasheva Psixologik salomatlik hamda uning mezonlari.....	69
Sh.K.Mamajonova O'smirlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini empirik o'rganish	73
D.M.Mo'minov Ommaviy axborot vositalaridagi manipulyativ omillarni inson ongiga tasirini o'rganish	81
D.M.Nuralieva O'zbek oilalarida oila qurish motivlarini o'rganishda empirik tadqiq etilganligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	87
R.S.Nuriddinov Bo'lajak pedagoglar psixologik salomatligiga ta'sir etuvchi omillar.....	92
M.J.Rajabov Oilaviy munosabatlarda transakt rollar va ularning tahlili	96
F.S.Soliyev Zamonaviy ta'lim muhitida psixologik xavfsizlik va ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksini oshirishning psixologik mexanizmlari	100
Sh.A.Usmonov Oilada bolaning o'zini anglashida ota-ona shaxsining roli	106
M.B.Yuldasheva Yolg'izlik hissining ifodalanish xususiyatlari	111
G.S.Yunusova O'quvchilarni kasb–hunarga yo'nalganligini psixologik tahlili	116
M.S.Zakirova Bolada shaxs fazilatlarini shakllanishida “Men” konsepsiyasining o'rni.....	121
H.A.G'anieva Maktab o'quvchilarining kasb tanlashga bo'lgan motivlarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlari....	128
Л.Ю.Абдукадирова, Д.В.Мионов Интернет-зависимость школьников, как фактор снижения показателей в исследованиях PISA	134



UO'K: 301.085:15 (048)

O'QUVCHILARNI KASB–HUNARGA YO'NALGANLIGINI PSIXOLOGIK TAHLILI**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОФОРИЕНТАЦИИ УЧАЩИХСЯ****PSYCHOLOGICAL ASSESSMENT OF THE ORIENTATION OF STUDENTS TO THE PROFESSION****Yunusova Go'zal Sultonovna** 

Farg'ona davlat universiteti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'quvchilarni kasb-hunarga yo'nalganligini psixologik tahlili to'g'risida fikr yuritilgan bo'lib, Zero, kasb tanlash har bir inson hayotida muhim o'rin egallaydi. Bu ishga qanchalik erta, maqsadli va mas'uliyat bilan kirishilsa, shunchalik ijobiy natijalarni beradi. Kasbni to'g'ri tanlash uchun esa imkon qadar ko'proq mutaxassisliklar haqida chuqur tushunchaga ega bo'lish lozim. Chunki inson tanlagan kasbi bo'yicha to'liq va obyektiv ma'lumotga ega bo'lsa, hato qilish ehtimoli shunchalik kam bo'ladi. Kasb tanlash – inson hayotidagi eng muhim qadamdir. Interaktiv so'rovnomalar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilar kasb tushunchasi va kasblar haqidagi savollarga javob topadilar. Kelajakda egallamoqchi bo'lgan kasblari haqida tasavvurga ega bo'la boshlaydilar. Kasb – bu ongli ravishda tanlangan faoliyat yo'lidir. O'quvchilarning tanlagan kasblari ularning qobiliyatlari, qiziqishlari, xarakter xususiyatlariga mos bo'lishi lozim. Chunki tanlangan kasb faqat ularning o'zlarigagina emas, balki jamiyatga ham foyda keltirishi kerak. Maqolada, Psixolog olimlarni yoshlarni kasb-hunarga yo'nalganligini aniqlash va ularning qiziqishlariga qarab yonaltirish mavzusidagi ilmiy- tadqiqotlar taxlili yoritilgan bo'lib, Rus psixologi E.A.Klimov tomonidan ishlab chiqilgan "Differentsial diagnostik so'rovnomasi" (DDS) metodikasini o'rganish natijalari va xulosalar yozilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается психологический анализ профессиональной ориентации учащихся, ведь выбор профессии занимает важное место в жизни каждого человека. Чем раньше, целенаправленнее и ответственно приступить к работе, тем больше положительных результатов она даст. А чтобы правильно выбрать профессию, необходимо иметь глубокое понимание как можно большего количества специальностей. Потому что чем полнее и объективнее человек осведомлен о выбранной профессии, тем меньше вероятность ошибки. Выбор профессии-самый важный шаг в жизни человека. С помощью интерактивных опросов и практических занятий учащиеся находят ответы на вопросы о концепции профессии и профессиях. Они начинают иметь представление о профессии, которую хотят получить в будущем. Профессия-это сознательно выбранный путь деятельности. Профессии, которые выбирают учащиеся, должны соответствовать их способностям, интересам, особенностям характера. Потому что выбранная профессия должна приносить пользу не только им самим, но и обществу. В статье освещается анализ научных исследований ученых-психологов на тему выявления профессиональной ориентации молодежи и ориентации ее в соответствии со своими интересами, проведенный российским психологом Е.А.Климовым. Написаны результаты исследования и выводы методики "Дифференциально-диагностического обследования" (ДДС), разработанной.

Abstract

This article reflects on the psychological factors of professional orientation of students, after all, the choice of a profession occupies an important place in the life of every person. The earlier, purposefully, and responsibly this work is initiated, the more positive results it produces. In order to choose the right profession, it is necessary to have a deep understanding of as many specialties as possible. Because the more complete and objective education a person has in their chosen profession, the less likely they are to commit an error. Choosing a profession is the most important step in a person's life. Through interactive surveys and hands-on activities, students find answers to questions about the concept of a profession and professions. In the future, they begin to have an idea of the professions they want to master. A profession is a consciously chosen path of activity. The chosen professions of students should correspond to their abilities, interests, character traits. Because the chosen profession should benefit not only their own, but also Society. The article highlights the assumption of research on the topic of determining the orientation of psychologist scientists to the profession of young people and their orientation according to their interests, the Russian psychologist E.A.Klimov. The results and conclusions of the study of the methodology of the "differential diagnostic survey" (DDS) developed by were written.

Kalit so'zlar: O'quvchilar, kasb-hunar, qiziqish, psixolog olimlar, qobiliyat, so'rovnomasi, qizlar, o'g'il bolalar, psixologik omillar, kasbga yo'naltirish, ilmiy-tadqiqot.

Ключевые слова: учащиеся, профессия, интересы, ученые-психологи, способности, анкета, девочки, мальчики, психологические факторы, профориентация, исследования и разработки.

Key words: pupils, profession, interest, psychologist scientists, ability, questionnaire, girls, boys, psychological factors, career orientation, research.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim, tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'grisida" gi farmoniga asosan 2021-2022-o'quv yilidan boshlab umumta'lim muassasalari bitiruvchilari o'z iqtidori va qiziqishlariga mos kasbni tanlab olishi, jamiyatda munosib o'z o'rnini topishi, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishi uchun "Kasbga yo'naltirish tizimi" joriy etilgan. Mazkur farmonda, "7,8,9-sinfdan boshlab o'quvchilar o'rtasida interaktiv so'rovnoma o'tkazish, kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash, o'quvchilar bilan birgalikda har oyda bir marta "kasblar olamiga sayohat" mavzusida maxsus kurslar olib borilishi to'grisida aytilgan. Interaktiv so'rovnoma orqali o'quvchilarning qiziqish sohalarini o'rganilib, tahlil qilinadi va shu asnoda kasbga yo'naltirib boriladi"[1].

XXI asrda mavjud kasblarni bilish, oilani tebratish uchun ular qanchalik ishonchli ekani, o'ziga xos xususiyatlari to'grisida ma'lumotga ega bo'lish hech kimni befarq qoldirmasa kerak. Chunki, sharoit va mutaxassislar yo'qligi sababli yoshlarni kasblarga qiziqtirish muhiti shakllanmagan. Maktab bitiruvchilarining 50 foizi mehnat bozoriga hech qanday kasbga ega bo'lmasdan kirib kelmoqda.

Kasb tanlash va kasbga yo'naltirish ishini, ayniqsa, bola kamolotining maktab yoshidan boshlab, uni kasbiy mehnat orqali jamiyat uchun foydali ish qilishga qodir, o'z mamlakatining bo'lajak to'laqonli fuqarosi sifatida shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Afsuski, bolalar, maktab o'quvchilari va yoshlar bilan kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish zarurligi to'grisida xabardorlik hali ham yetarli emas. Shu sababli, bo'lajak kasbga yo'naltirish bo'yicha mutaxassislarni (pro-konsultantlar, pedagogik-psixologlar va boshqalar) tayyorlash, ularning nazariy va uslubiy bazasini shakllantirishdan tashqari, ushbu yo'nalishda "jonli" ishlashga va boshqalarni o'ziga jalb qilishga motivatsion tayyorlikni anglatishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ilmiy manbalarning tahlili shundan dalolat beradiki, kasblarni tasniflash, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish ishining ko'p qirrali sohalarini tadqiq etib umummetodologik va nazariy muammolar borasida qator izlanishlar olib borilgan, bular: V.N.Tatishev, S.P.Strumilin, L.A.Yovaysha, Dj.Holland, F.Parsons, A.Maslov, S.Axelrod, S.Ginsberg, E.Ginsburga, D.Syuper, E.A.Klimov, K.K.Platonov kabi olimlar.

Jumladan rus psixologi E.A.Klimov tadqiqotlarida "Kasb tanlash", "kasbga yo'naltirish" kabi masalalarga etiborni qaratib, bu borada tadqiqot ishlarini olib borgan va shu tadqiqotlaridan kelib chiqqan holda, "Differentsial diagnostik so'rovnoma" (DDS) metodikasini ishlab chiqqan. Hozirgi davrda maktablarning kasbga yo'naltirish amaliyotida E.A.Klimovning ushbu metodikasi keng qo'llaniladi, shubhasiz, uning qiymati yuqori sinflarning kasblar tasnifi doirasida qiziqish va moyilliklari shakllanganligi to'grisida ma'lumotlar olish imkoniyati sanaladi. Mazkur metodika xilma-xil kasblarni insonning o'zaro ta'sir etuvchi predmeti bilan bog'liqligi tufayli ularni 5 ta turkumga ajratish asosiga qurilgan. Bular: "Odam-texnika", "Odam-odam", "Odam-tabiat", "Odam-belgilar tizimi", "Odam-badiiy obraz".[5]

E.A.Klimov o'z tadqiqotlari natijasida kasb tanlash va kasbga yo'naltirish haqida bir necha ta'riflarni ilgari suradi. Ta'rif quyidagicha "Kasb jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo'lib, bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab etadi", - bu kuchlar unga sarflangan mehnat o'rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo'ladi.[4]

O'quvchilarning kasb tanlashini E.A.Klimov uchta tomonini ajratib ko'rsatadi.

1. Shu kasbda ishlashni istash (xohlayman).
2. Kasbni egallashga bo'lgan qobiliyat, imkoniyatlamini hisobga olish va keyinchalik yaxshi natijaga erishish (bajara olaman).

3. Tanlagan kasbga xalq xo'jaligini ehtiyojlarini hisobga olish (kerak).

Shuningdek, E.A.Klimov tomonidan kasb tanlashning aniq omillari ham ajratiladi. Bular quyidagilar:

1. O'zining qiziqishlari va xohishlarini hisobga olish;
2. O'zidagi qobiliyatlarni hisobga olish;

3. Kasb haqida ma'lumotlarga ega bo'lish;
4. Ota - onaning fikrlarini hisobga olish;
5. Sinfdozlarini, tengdoshlarini, o'rtoqlarini fikrlarini hisobga olish;

Umuman, yuqorida qayd etilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, kasb tanlash muammosi keng ko'lamli va ko'p qirrali jarayondir. Shu sababli ota-onalar va o'qituvchi murabbiylar bolalarning qiziqish va layoqatiga ko'ra kasb-hunarga yo'naltirishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'zbek psixologlari tadqiqotlarida kasb tanlash va kasbga yo'naltirish muammolari, kasbiy konsultatsiyalar shaxs xossalari, xususiyatlari, sifatleri tashxis metodlarini ishlab chiqish psixologiya fanining markaziy vazifalaridan biridir. Respublikamizda tashxisning bunday metodikalarini yaratishda ma'lum tajriba to'plangan. Masalan, o'quvchilarni psixologik o'rganish metodikasi (V.A.Tokareva S.Sh.Aytmetova) shaxsni o'rganish metodlari (E.G'.G'oziyev va R.Z.Asomova, tahriri ostida, B.R.Qodirov va K.B.Qodirovlar ishlab chiqqan) o'quvchilarni kasb tanlash vazifalarini hal etish uchun tashxislash metodlari, R.Z.Gaynutdinov rahbarligida yaratilgan turli kasblar uchun asosli professiogrammalardir.

Misol uchun: E.G'.G'oziyev va R.Z.Asomovaning tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, motiv va motivatsiya tizimi shaxsning faoliyati, muomalasi, xatti-harakatining ichki regulyatsiyasi funksiyasini bajarib, ehtiyojini qondirish, xohish-istak, ezgu niyat, orzu-tilak, mayl, his-tuyg'u, ustanovka, ideal, imon-e'tiqod, vijdon, maqsad qo'ya olish va boshqalarni ro'yobga chiqarishning bosh omili bo'lib hisoblanadi. Motiv va motivatsiya faqat bilimlarni o'zlashtirish, o'quv malakalarini egallash, muomala maromini qo'llash bilangina cheklanib qolmasdan, balki shaxsning xulq-atvorini, yangi hislatlar namoyon bo'lishini ham izohlab berishga xizmat qiladi [8].

R.Z.Asomova "*Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi*" nomli ilmiy izlanishida kasb tanlash motivlari mexanizmlari, ularning birlamchi manbalari, harakatlantiruvchi kuchlari, dinamikasi va shaxsning individualligi masalalari atroflicha ochib berilgan. Shuningdek, kasbiy motivlarning mutaxassisni kasbiy tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik, hamda kasbiy va o'quv motivlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik masalalari ham keng doirada tadqiq qilingan [2].

Kasb tanlashga tayyorlikning psixologik jihatlari va kasbiy diagnostika muammolariga doir tadqiqot ishi B.Qodirov tomonidan olib borilgan. Bunda asosiy qoida kasbiy yo'nalganlik umuman moyilliklarda, qiziqish va qadriyatlarda ifodalanib, kasbiy rivojlanishning mazmuniy tomoni sanaladi. Kasb tanlash chog'ida psixologik tayyorgarlik yoki yetuklik kasbiy o'zini-o'zi anglashning muhim omili bo'lib, kasbni to'g'ri tanlashga yordamlashadi va kuch, barqarorlik, keskinlikda namoyon bo'ladi, bu ongillik, mustaqillik bilan ta'minlanadi va kasbiy tanlovning formal-dinamik jihatiga kiradi. Shunday kilib, kasbiy tanlovning barcha mazmuniy va formal-dinamik jihatlari, umuman shaxsning kasbiy rivojlanishi ma'lum strategiyasi shakllanishiga ko'maklashadi. Shu bilan birga K.B.Qodirov tadqiqotining emperik qismi ma'lumotlariga asoslanib xulosa qiladiki, intellektual qobiliyatlar, shaxs motivlari, yo'nalganlik, moyillik tendensiya va boshqalar bilan uzviy bog'liklikda bo'lib, yoshlarning kasbiy tiklanish asosi sanaladi. Shaxs atrof-muhitga, qadriyatlarga, faoliyat turlari mazmuniga tanlab, shu jumladan, o'z aqliy imkoniyatlariga muvofiq munosabatda bo'ladi [7].

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, respublikamiz psixologlari tomonidan kasbga yo'naltirish, kasb tanlash masalalariga doir bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Hozirgi davrda maktablarning kasbga yo'naltirish amaliyotida E.A.Klimovning DDS (differensial-diagnostik so'rovnoma) metodikasi keng qo'llaniladi, shubhasiz, uning qiymati yuqori sinflarning kasblar tasnifi doirasida qiziqish va moyilliklari shakllanganligi to'g'risida ma'lumotlar olish imkoniyati sanaladi. Mazkur metodika xilma-xil kasblarni insonning o'zaro ta'sir etuvchi predmeti bilan bog'liqligi tufayli ularni 5 ta turkumga ajratish asosiga qurilgan. Bular: "Odam-Tabiat", "Odam-Texnika", "Odam-Odam", "Odam-Belgilar tizimi", "Odam-Badiiy obraz".[5]


Ushbu metodika yordamida sinaluvchining faoliyatni u yoki bu turidan qaysi birini ko'prok ma'qul ko'rishligi va shunga mos ravishda qaysi kasbga moyilligi aniqlanadi.

Biz o'quvchilarning iqtidorining yo'nalganligini, faoliyat va kasb – hunar sohalarini aniqlash maqsadida rus psixologi E.A.Klimovning "Differensial diagnostik so'rovnomasi" ni qisqacha DDS metodikasini o'tkazdik va o'tkazilgan natijalar sifat va miqdor jihatdan tahlil qilindi (1-jadval).

DDS bo'yicha olingan natijalarning sifat va miqdor jihatdan tahlilining jadval ko'rinishi.

No	Kasblar tasnifi	Respondentlar soni	O'g'il bolalar	Qiz bolalar
1	Odam – Tabiat	17	4	13
2	Odam – Texnika	13	13	0
3	Odam – Odam	57	14	43
4	Odam – Belgilar tizimi	12	8	4
5	Odam – Badiiy obraz	20	4	16

Metodika bo'yicha olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, kasblarga nisbatan yo'nalganlik shkalasi ko'proq bizning sinaluvchilarimiz qiz bolalarni tashkil etganligi sababli "Odam-Tabiat", "Odam-Odam" va "Odam-Badiiy obraz"lar bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishlarda nisbatan yuqori natijani ko'rsatdi. "Odam-Tabiat": respondentlar soni – 17 ta, shundan 4 tasini – o'g'il bolalar, 13 tasini – qiz bolalar, "Odam-Texnika": respondentlar soni – 13 ta, barchasini o'g'il bolalar, "Odam-Odam": respondentlar soni – 57 ta, shundan 14 tasini – o'g'il bolalar, 43 tasini – qiz bolalar, "Odam-Belgilar tizimi": respondentlar soni – 12 ta, shundan 8 tasini – o'g'il bolalar, 4 tasini – qiz bolalar, "Odam-Badiiy obraz": respondentlar soni – 20 ta, shundan 4 tasini – o'g'il bolalar, 16 tasini – qiz bolalar tashkil etdi.



8-rasm. Differensial diagnostik so'rovnoma bo'yicha olingan natijalarning diagramma ko'rinishi.

Ko'rsatkichlar foizlarda umumiy holda hisoblaganda quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi. "Odam-Tabiat": umumiy – 14%, shundan 3% – o'g'il bolalar, 11% – qiz bolalar, "Odam-Texnika": umumiy – 11%, shundan 11% – o'g'il bolalar, 0% – qiz bolalar, "Odam-Odam": umumiy – 48%, shundan 12% – o'g'il bolalar, 36% – qiz bolalar, "Odam-Belgilar tizimi": umumiy – 10%, shundan 7% – o'g'il bolalar, 3% – qiz bolalar, "Odam-Badiiy obraz": umumiy – 17%, shundan 3% – o'g'il bolalar, 14% – qiz bolalar tashkil etdi.

So'rovnoma yuzasidan olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, kasblarga nisbatan yo'nalganlik shkalasi ko'proq bizning sinaluvchilarimiz qiz bolalarni tashkil etganligi sababli "Odam-Tabiat", "Odam-Odam" va "Odam-Badiiy obraz"lar bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishlarda nisbatan yuqori natijani ko'rsatdi.

“Odam-TeXnika” va “Odam-Belgilar tizimida” o‘g‘il bolalarning ko‘rsatgichlari qiz bolalarga nisbatan natijalarining yuqoriligi aniqlandi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, tadqiqotimiz natijasida yuqori sinf o‘quvchilarining kasb tanlashdagi holatlari tahlil qilinganda, ularning kasblar to‘g‘risidagi tushunchalarida sayozlik (88% o‘quvchida kuzatildi) mavjudligi ko‘zga tashlandi. Bundan tashqari, kasbiy o‘zligini anglash bilan ma‘lum kasbni tanlash jarayoni o‘rtasida ta‘lim-tarbiya muhiti va atrofdagilarning ta‘siri omillarini nazardan chetda tutmasligimiz lozim bo‘ladi. Bu borada olingan natijalarning 42% ni o‘quvchilarning kasb tanlashiga oila a‘zolarining ta‘siri borligi aniqlandi.

O‘smirlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammodir shu sababli bu jarayonda ota-onalar, jamoatchilik va turli kasb ustalari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar ko‘p hollarda kattalarning maslahatlari va tavsiyalarini hisobga olgan holda qat‘iy bir fikrga, qarorga kelishadi.

Kasbga yo‘naltirish – shaxsning ijtimoiy taqdirini belgilashning tarkibiy qismidir. Kasb tanlash – hayot mazmuni haqidagi o‘ylari va shaxsiy “Men” tabiati bilan mos kelganda muvaffaqiyatli hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha, harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-son Farmon.
2. Asomova R.Z. “Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi”. Psix.f.n..dis.- T., 2002. -137 b.
3. Jumayev U.S., “O‘smirlarda kasb tanlashga munosabat tizimi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari”. Psixol.f.n. dis.- Toshkent: 2004 y.
4. Климов Е.А., «Психология профессионала». – М.: Изд-во «Институт практической психологии»; Воронеж: НПО «МОДЭК», 1996, 400 с.
5. Климов Е.А., «Психология профессионального самоопределения». Учебное пособие для студ.высш.пед.учеб. заведений. – Москва: Издательский центр «Академия» 2004 г. 304 с.
6. Климов Е.А., «Пути в профессионализм». – М.: Московский психолого-социальный институт. Флинта, 2003, 320 с.
7. Qodirov B.R., Qodirov K.B. “Kasbiy tashxis metodikalari”., Toshkent – 2000. 21 b.
8. G‘oziyev E.G‘., Mamedov K.Q. “Kasb psixologiyasi”., Darslik. Toshkent – 2003. 104 b